

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA TUZULMAVIY-FUNKSIONAL YONDASHUV MASALALARI

Raximova Mubinoxon Maxmudjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti Roman-german va slavyan tillari fakulteti

Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası Stajyor-o'qituvchi

E-mail: moubina1998@gmail.com

+998505006165

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy tillarni o'qitishda tuzulmaviy-funksional yondashuv asoslari tahlil qilingan. Muallif tomonidan mazkur yondashuvning aynan fransuz tilini talabalarga individual va guruh mashg'ulotlarida qo'llashga oid bir qancha masalalar ko'rib chiqilgan va tuzulmaviy-funksional yondashuvning boshqa metodlar bilan uyg'unligi ochib berilgan.

Tayanch so'zlar. Fransuz tili, xorijiy til, tuzulmaviy-funksional yondashuv, metodologiya, interaktiv metodlar, kognitiv bilimlar, individual mashg'ulot, guruh mashg'ulotlari

ISSUES OF THE STRUCTURAL-FUNCTIONAL APPROACH IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Abstract. This article analyzes the foundations of the structural-functional approach in teaching foreign languages. The author examines a number of issues related to the application of this approach in individual and group lessons with students learning French and identifies the compatibility of the structural-functional approach with other methods.

Keywords: French language, foreign language, structural-functional approach, methodology, interactive methods, cognitive knowledge, individual lessons, group lessons.

ПРОБЛЕМЫ СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ПОДХОДА В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. В данной статье анализируются основы структурно-функционального подхода в обучении иностранным языкам. Автор рассматривает ряд вопросов, связанных с применением этого подхода на индивидуальных и групповых занятиях со студентами, изучающими французский язык, и выявляет совместимость структурно-функционального подхода с другими методами.

Ключевые слова: французский язык, иностранный язык, структурно-функциональный подход, методология, интерактивные методы, познавательные знания, индивидуальные занятия, групповые занятия.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o'rganish shaxsning akademik, professional va ijtimoiy rivojlanishida muhim omilga aylandi. Bugungi

kunda xorijiy til bilimlari nafaqat lingvistik bilimlar majmui, balki madaniyatlararo muloqotni samarali amalga oshirish vositasi sifatida talqin qilinmoqda. Shu bois xorijiy tillarni o'qitishda an'anaviy grammatik-tarjima metodlari bilan cheklanib qolish ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Zamonaviy lingvodidaktikada tilni o'qitishga yangicha yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida tuzilmaviy-funksional yondashuv alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv til birliklarini faqat grammatik tuzilma sifatida emas, balki ularning kommunikativ vazifalari orqali o'rganishni nazarda tutadi. Natijada o'quvchilarda real nutqiy vaziyatlarda til birliklaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalari shakllanadi.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi xorijiy tillarni o'qitishda tuzilmaviy-funksional yondashuvning nazariy asoslari, ilmiy adabiyotlarda yoritilishi hamda amaliy qo'llanish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tuzilmaviy-funksional yondashuv XX asr lingvistikasining muhim ilmiy yo'nalishlari asosida shakllangan. Dastlab, tilni qat'iy tizim sifatida talqin qiluvchi strukturaviy lingvistika vakillari til birliklarini formal munosabatlar orqali o'rganishga e'tibor qaratganlar. Jumladan, amerikalik tilshunos Leonard Bloomfield tilni belgilar tizimi sifatida izohlab, grammatik strukturalarning ustuvorligini ta'kidlagan.

Biroq keyingi tadqiqotlar tilning faqat strukturaviy jihatlari muloqot jarayonini to'liq ifodalay olmasligini ko'rsatdi. Shu asosda funksional lingvistika rivojlandi. Bu yo'nalishning yetakchi namoyandasi M.A.K. Halliday tilni ijtimoiy-semiotik hodisa sifatida talqin qilib, har bir til birligi muayyan kommunikativ funksiyani bajarishini asoslab berdi.

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasida muhim burilish Dell Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya tushunchasi bilan bog'liq. Olim tilni bilish deganda faqat grammatik qoidalarga rioya qilish emas, balki nutqning vaziyatga mosligi va ijtimoiy maqbulligini ham tushunishni nazarda tutgan.

Shuningdek, D. Wilkins tomonidan ishlab chiqilgan funksional-notional syllabus modeli xorijiy tillarni o'qitishda tuzilmaviy-funksional yondashuvning

amaliy asosini tashkil etadi. Ushbu modelda o'quv materialini grammatik mavzular asosida emas, balki nutqiy funksiyalar va tushunchalar asosida tashkil etiladi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham tilni funksional jihatdan o'rganish masalalari keng tadqiq etilgan. Jumladan, N. Mahmudov va A. Nurmonov asarlarida til birliklarining nutqdagi vazifasi va pragmatik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tuzilmaviy-funksional yondashuv tilni o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan tizim sifatida ko'rib, ushbu elementlarning kommunikativ vazifalarini tahlil qilishga asoslanadi. Bu yondashuvda grammatik shakllar ularning nutqdagi funksiyasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi.

Masalan, fe'l zamonlari faqat vaqtni ifodalovchi grammatik kategoriya sifatida emas, balki axborotning dolzarbligi, natijaviyligi yoki davomiyligini ifodalovchi vosita sifatida talqin qilinadi. Bu esa o'quvchilarning tilni ongli ravishda o'zlashtirishiga yordam beradi.

Ta'kidlash kerakki, har bir konseptual-metodologik yondashuv kabi, mazkur yondashuv ham bir qancha metodik tamoyillarga tayanadi va ular quyidagilar:

- kommunikativ yo'naltirilganlik;
- funksional ustuvorlik;
- kontekstga asoslangan o'qitish;
- integrativ yondashuv.

Bu tamoyillar xorijiy tilni o'rganish jarayonida grammatik bilimlar va nutqiy ko'nikmalarni birgalikda shakllantirishga xizmat qiladi.

	Tamoyil nomi	Mazmuni	Xorijiy tilni o'qitishdagi ahamiyati
	Kommunikativ yo'naltirilganlik	Til real muloqot jarayonida qo'llaniladigan kommunikativ vosita sifatida o'rgatiladi.	O'quvchilarda real nutqiy vaziyatlarda erkin muloqot qilish ko'nikmasi shakllanadi.

	Funksional ustuvorlik	Til birliklari ularning grammatik shakliga emas, balki nutqdagi bajaradigan vazifasiga ko'ra tanlanadi.	Grammatik bilimlar amaliy nutq bilan bog'lanadi va funksional kompetensiya rivojlanadi.
	Integrativlik	Grammatik, leksik va pragmatik jihatlar o'zaro uyg'unlikda o'rgatiladi.	Til ko'nikmalari kompleks shakllanib, nutqning to'g'riligi va mosligi ta'minlanadi.
	Kontekstga bog'liqlik	Til birliklari aniq vaziyat va nutqiy kontekst asosida beriladi.	O'quvchi til birliklaridan vaziyatga mos ravishda foydalanishni o'rganadi.

1-rasm. Tuzilmaviy-funksional yondashuvning asosiy tamoyillari

Fransuz tilini o'qitish amaliyotida tuzilmaviy-funksional yondashuv dialoglar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va autentik matnlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, fransuz tilini o'qitishda so'roq gaplar faqat sintaktik model sifatida emas, balki axborot olish, suhbatni davom ettirish yoki aniqlik kiritish funksiyalarida qo'llaniladi. Demak, umumiyashtirsak maliyotda ushbu yondashuv quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- dialog va rolli o'yinlar asosida darslar tashkil etish;
- nutqiy vaziyatlarga mos grammatik modellarni o'rgatish;
- autentik matnlar bilan ishlash;
- kommunikativ topshiriqlar orqali baholash.

Masalan, fransuz tilini o'rganishda Passé composé zamoni faqat shakl jihatidan emas, balki tajriba ifodalash, natijani ta'kidlash kabi funksiyalar orqali o'rgatiladi.

Fikrimizcha, ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, o'quvchilarda real kommunikativ kompetensiya shakllanadi, til bilimlari amaliy nutq bilan bog'lanadi. Biroq metodik jihatdan murakkabligi va o'qituvchidan yuqori kasbiy tayyorgarlikni talab qilishi uning ayrim cheklovlari sifatida qayd etiladi.

o'quvchilarda
kommunikativ
kompetensiya
rivojlanadi

til bilimlari real
nutq bilan
bog'lanadi

motivatsiya oshadi

kognitiv bilimlar
oshadi

mashg'ulotlarning
qiziqarlilik
darajasini oshiradi

2-rasm. Tuzilmaviy-funksional yondashuvning afzalliklari

Shuning bilan birga ta'kidlash keraaki, har bir metod yoki yondashuv kabi mazkur metodning ham o'z kamchiliklari mavjud. Avvalo ushbu kamchiliklarni cheklovlar deb atash aniqroq deb hisoblaymiz. Ushbu cheklovlar esa o'qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlik talab etilishi, arslarni rejalashtirish murakkabligi, va baholash mezonlarini aniqlash qiyinlashishi bilan bog'liq. Biroq, sanab o'tilgan cheklovlar asosan dars jarayonini to'g'ri tashkil qilish bilan bog'liq va bu vazifa uddalansa tuzilmaviy-funksional yondashuv ham guruh, ham yakka tartibdagi mashg'ulotlarda eng samarali uslublardan biri bo'lib qoladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o'qitishda tuzilmaviy-funksional yondashuv zamonaviy ta'lim tizimining talablariga to'liq javob beruvchi samarali muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv tilni kommunikativ vosita sifatida o'rganishga imkon berib, o'quvchilarda funksional nutqiy kompetensiyani shakllantiradi. Zero bu yondashuv tilni formal tizim sifatida emas, balki ijtimoiy-kommunikativ hodisa sifatida o'rganishga imkon beradi. Natijada o'quvchilarda nafaqat grammatik bilimlar, balki real nutqiy faoliyatda qo'llaniladigan funksional kompetensiyalar shakllanadi, materiallarni o'rganish jarayoni samaraliroq va hayotiyroq tus oladi.

Fikrimizcha, mazkur yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy etish xorijiy tilni o'qitish sifatini oshirish, bitiruvchilarning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bloomfield L. Language. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1933. – P.500
2. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson, 2007. – P.500
3. Celce-Murcia M. Teaching English as a Second or Foreign Language. – Boston: Heinle, 2001. – P. 570
4. Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic. – London: Edward Arnold, 1978. – P. 256
5. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007. – P. 350
6. Hymes D. On Communicative Competence. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – P.40
7. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – Pp. Mahmudov N. Til va nutq masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 45–67
8. Mahmudov N. Til va nutq masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. - B. 290
9. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P.150
10. Wilkins D. Notional Syllabuses. – Oxford: Oxford University Press, 1976. – P.278